So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida kichik va o'rta biznes (KO'B)ni rivojlantirish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Global iqtisodiy beqarorlik, tashqi bozorlardagi o'zgaruvchan kon'yunktura, logistika zanjirlaridagi uzilishlar hamda tashqi savdo hamkorlarida yuzaga kelayotgan cheklovlar milliy iqtisodiyotda ichki o'sish manbalarini safarbar etish zaruratini kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholi bandligini oshirish hamda daromadlar diversifikatsiyasini kengaytirishda kichik va o'rta biznes sektori muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kichik va o'rta korxonalar (KO'B) aksariyat mamlakatlar iqtisodiyotining asosini tashkil etadi. Ular barcha korxonalarning qariyb 90 foizini hamda dunyodagi jami band aholining yarmidan ko'pini tashkil etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o'rta biznes iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda muhim o'rin egallaydi. Shunga qaramay, ushbu korxonalar biznesni boshlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb etishda ko'plab muammolarga duch keladi.

O'zbekistonda ham KO'B ulushi yalpi ichki mahsulotda salmoqli o'rin egallab, bandlikni ta'minlash va aholi daromadlarini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar, jumladan, sanksiyaviy bosim, mintaqaviy geosiyosiy keskinlik hamda import ta'minotidagi cheklovlar mamlakat iqtisodiyotida yangi institutsional va tarkibiy islohotlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu esa KO'Bni rivojlantirish orqali ichki bozor imkoniyatlarini kengaytirish, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rag'batlantirish va eksport salohiyatini oshirish vazifalarini yanada dolzarb etadi.

Shu nuqtai nazardan, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish muammolarini tizimli tahlil qilish, uning institutsional, moliyaviy va infratuzilmaviy cheklovlarini aniqlash hamda xalqaro tajriba asosida rivojlanish istiqbollarini belgilash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi barcha korxonalarning qariyb 90 foizi va ish o'rinlarining 50 foizdan ortig'i kichik va o'rta korxonalar hissasiga to'g'ri keladi. Ayniqsa, jahon moliyaviy inqirozidan keyingi davrda rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi ish o'rinlarini yaratish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ushbu sektor muhim harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda[1]. O'zbekistonda ham mazkur sektor iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida qaralmoqda.

KO'B aholi bandligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda ish bilan band aholining katta qismi aynan kichik biznes subyektlarida faoliyat yuritadi[2]. Bu holat ushbu sektorni kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish siyosati bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, soliq ma'murchiligini soddalashtirish, litsenziyalash tartib-taomillarini qisqartirish hamda raqamli xizmatlarni keng joriy etish orqali tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur jarayonlar KO'B subyektlarining bozorga kirish va faoliyat yuritish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Tashqi iqtisodiy cheklovlar va global bozordagi o'zgarishlar sharoitida ichki ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlash strategik vazifaga aylanmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tahlillariga ko'ra, kichik va o'rta biznes inqiroz sharoitida iqtisodiyotning eng moslashuvchan segmentlaridan biri hisoblanadi[3].

Shu sababli, O'zbekiston iqtisodiyotida KO'Bni rivojlantirish muammolari va istiqbollarini ilmiy-metodologik jihatdan tadqiq etish, uning institutsional muhitini takomillashtirish hamda davlat tomonidan samarali qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik va o'rta biznes (KO'B) iqtisodiy rivojlanish, bandlikni ta'minlash hamda innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Jahon iqtisodiy adabiyotlarida ushbu sektor iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida keng o'rganilgan. Xususan, Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, dunyodagi barcha korxonalarning qariyb 90 foizi kichik va o'rta biznes subyektlariga to'g'ri keladi hamda global miqyosda ish o'rinlarining yarmidan ko'pi aynan ushbu sektor tomonidan yaratiladi. Shu sababli KO'Bni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

---

1 Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance. URL: https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance

2 World Bank. IFC and Small and Medium Enterprises (English). Washington, D.C. : World Bank Group. https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099924208162450064

3 O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar. URL: https://www.stat.uz

Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) tadqiqotlarida kichik va oʻrta biznesni rivojlantirishda moliyaviy infratuzilma, kredit resurslariga kirish imkoniyati hamda institutsional muhit muhim omil sifatida koʻrsatiladi. Ushbu tadqiqotlarga koʻra, KOʻB subyektlarining asosiy muammolaridan biri moliyalashtirish manbalariga kirish imkoniyatining cheklanganligi boʻlib, bu holat ularning ishlab chiqarish hajmi va investitsiya faolligiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik va oʻrta biznes iqtisodiy tizimning eng moslashuvchan segmentlaridan biri sifatida baholanadi. OECD tahlillariga koʻra, KOʻB subyektlari iqtisodiy inqiroz sharoitida ham moslashuvchanlikni saqlab qolib, yangi ish oʻrinlari yaratish hamda iqtisodiy diversifikatsiyani taʼminlashda muhim rol oʻynaydi. Shu bilan birga, tadbirkorlik infratuzilmasining rivojlanganligi va davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi ushbu sektorning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda kichik va oʻrta biznesni qoʻllab-quvvatlash infratuzilmasi masalalari ham keng oʻrganilgan. Xususan, A. Mottaeva va N. Gritsuk tadqiqotlarida KOʻBni qoʻllab-quvvatlash infratuzilmasi tarkibiga biznes-inkubatorlar, texnoparklar, innovatsion markazlar, moliyaviy institutlar hamda davlat tomonidan yaratilgan institutsional mexanizmlar kirishi taʼkidlanadi. Mualliflarning fikriga koʻra, ushbu infratuzilma elementlari kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligini oshirish hamda ularning bozor raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O.N. Bocharova tadqiqotlarida kichik va oʻrta biznesni rivojlantirishda davlat siyosatining roli alohida taʼkidlanadi. Muallifning fikriga koʻra, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, maʼmuriy toʻsiqlarni kamaytirish hamda moliyaviy qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish kichik biznes sektorining barqaror oʻsishini taʼminlaydi.

Oʻzbekiston iqtisodiyoti misolida ham kichik va oʻrta biznesni rivojlantirish masalalari ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Statistik maʼlumotlarga koʻra, mamlakatda yalpi ichki mahsulotning salmoqli qismi hamda band aholining katta ulushi aynan kichik biznes subyektlari hissasiga toʻgʻri keladi. Shu sababli tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kengaytirish, davlat xaridlari tizimida KOʻB ishtirokini oshirish hamda moliyaviy qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun yaqin istiqbolda quyidagi yoʻnalishlarda izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deb hisoblanadi:

- yangi kichik va oʻrta biznes subyektlarini tashkil etish hamda ularning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan bozor infratuzilmasini takomillashtirish;
- raqobatbardosh va istiqbolli korxonalarni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zamonaviy va samarali moliyaviy instrumentlardan keng foydalanish;
- mavjud moliyalashtirish institutlari faoliyatini qoʻllab-quvvatlash hamda ular uchun qulay iqtisodiy va institutsional shart-sharoitlar yaratish;
- biznes-inkubatorlar, texnoparklar, innovatsion-texnologik parklar va texnologiyalar transferi markazlari kabi tashkiliy tuzilmalarni rivojlantirish hamda yangi markazlarni tashkil etish;
- maʼmuriy toʻsiqlarni bartaraf etish hamda kelgusida yangi muammolar yuzaga kelishining oldini olish maqsadida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- kichik va oʻrta biznes subyektlarining davlat xaridlari va tenderlarda ishtirok etish imkoniyatlarini taʼminlaydigan qonunchilik normalarini amalda toʻliq qoʻllash;
- davlat yoki munitsipal mulkka tegishli koʻchmas mulk obyektlaridan kichik va oʻrta biznes subyektlarining foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

Ushbu yoʻnalishlar kichik va oʻrta biznesni kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi institutsional, moliyaviy va tashkiliy asoslarni mustahkamlashga qaratilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Soʻnggi nazariy tadqiqotlarda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) mohiyati yanada kengroq talqin qilinmoqda. Ushbu yondashuvlarga koʻra, EIZ iqtisodiy jarayonlarga davlat aralashuvini tanlab qisqartirish vositasi sifatida baholanadi. Bunday tashkiliy shakl, ayniqsa, kichik va oʻrta biznes tuzilmalari samarali faoliyat yuritishi uchun qulay institutsional muhitni shakllantiradi[4].

4 OECD. OECD SME and Entrepreneurship Outlook – 2023. URL: https://www.oecd.org/en/publications/oecd-sme-and-entrepreneurship-outlook-2023_342b8564-en.html

EIZ tushunchasining mazkur talqini imtiyozli xo'jalik yuritish tartibi amal qilishi bilan bog'liq barcha iqtisodiy hodisalar majmuasini qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan, maxsus hudud faqat alohida geografik makon sifatida emas, balki milliy iqtisodiy makonning shunday qismi sifatida qaraladi-ki, unda boshqa hududlarda qo'llanilmaydigan alohida rag'batlantirish va imtiyozlar tizimi joriy etilgan hamda amalda qo'llaniladi.

Tadqiqot natijalari

O'zbekistonda kichik va o'rta biznes (KO'B)ni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari orqali amalga oshirilayotganini ko'rsatdi. Quyida asosiy institutsional mexanizmlar hamda ularning samaradorligi bo'yicha tahlil natijalari keltiriladi.

O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar kichik va o'rta biznesni rag'batlantirishning muhim institutsional vositasi sifatida shakllangan. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, EIZ hududlarida soliq va bojxona imtiyozlari, soddalashtirilgan ma'muriy tartib-taomillar hamda infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, EIZlar nafaqat geografik jihatdan ajratilgan hudud, balki milliy iqtisodiy makonda imtiyozli xo'jalik yuritish tartibi amal qiladigan institutsional muhit sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu yondashuvga ko'ra, EIZ davlat aralashuvini tanlab qisqartirish hamda xususiy tashabbusni faollashtirish mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, EIZlarda faoliyat yuritayotgan KO'B subyektlari eksport faolligi va investitsiyalarni jalb qilish ko'rsatkichlari bo'yicha respublika o'rtacha darajasidan yuqori natijalarni namoyon etmoqda. Bu holat imtiyozlar tizimi hamda infratuzilmaning maqsadli yo'naltirilganligi bilan izohlanadi[5].

Shu bilan birga, tahlil natijalari EIZlarda qo'llanilayotgan imtiyozlar tizimi hududiy rivojlanish dasturlari hamda tarmoq ixtisoslashuviga bevosita bog'liq ekanini ko'rsatdi. Demak, ushbu zonalarning samaradorligi strategik rejalashtirish sifatiga ham uzviy bog'liq.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, KO'B uchun asosiy muammolardan biri ichki bozorda barqaror talabning yetarli darajada shakllanmaganligidir. Ushbu muammoni hal etishning samarali mexanizmlaridan biri davlat va munitsipal xaridlar tizimiga kichik va o'rta biznes subyektlarini keng jalb etish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda davlat xaridlari elektron platformasi ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tahlillar elektron auksion va tender mexanizmlarining KO'B ishtirokini sezilarli darajada oshirganini ko'rsatdi[6].

Amaldagi qonunchilikda kichik biznes subyektlari uchun alohida kvotalar hamda imtiyozli shartlar nazarda tutilgan bo'lib, bu ularning davlat buyurtmalarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda[7].

Statistik tahlil natijalariga ko'ra quyidagi tendensiyalar aniqlangan:

· elektron savdolar ulushining ortishi KO'B ishtirok darajasi bilan musbat korrelyatsiyaga ega;

· davlat buyurtmalarida ishtirok etgan KO'B subyektlarida ishlab chiqarish hajmi hamda bandlik ko'rsatkichlarining o'sish sur'ati yuqori;

· raqamli tender tizimining joriy etilishi shaffoflikni oshirib, ma'muriy to'siqlarni sezilarli darajada qisqartirgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni (KO'B) qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi ikki strategik yo'nalish — erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish hamda davlat xaridlarida ishtirokni kengaytirish orqali sezilarli darajada mustahkamlanmoqda.

Fikrimizcha, ushbu tizim samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

· erkin iqtisodiy zonalarda tarmoq ixtisoslashuvini kuchaytirish;

· davlat xaridlarida KO'B ulushini bosqichma-bosqich oshirish;

· elektron tender jarayonlarini to'liq raqamlashtirish hamda monitoring tizimini takomillashtirish.

Tadqiqot doirasida davlat xaridlari tizimi orqali kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash samaradorligi baholandi. Davlat buyurtmalarida KO'B ishtirokini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda tuzilgan shartnomalar soni va ularning qiymatida barqaror o'sish kuzatilmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, ayrim yillarda KO'B subyektlari bilan tuzilgan davlat shartnomalari soni sezilarli darajada oshgan. Shuningdek, ushbu shartnomalar qiymatining umumiy hajmdagi ulushi ham o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Mazkur holat davlat siyosatida KO'B subyektlarini davlat va munitsipal buyurtmalarga keng jalb etish ustuvor vazifa sifatida belgilangani bilan izohlanadi (1-jadval).

5 Mottaeva A., Gritsuk N. Development of Infrastructure of Support of Small and Medium Business. MATEC Web of Conferences, 2017, Vol. 106, Article 08083. DOI: https://doi.org/10.1051/matecconf/201710608083
6 O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Rasmiy ma'lumotlar. URL: https://gov.uz/oz/miit
7 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Rasmiy ma'lumotlar. URL: https://www.imv.uz

1-jadval. O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes (KO‘B) subyektlarining davlat xaridlarida ishtiroki bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar[8]

| Yil | KO‘B bilan tuzilgan shartnomalar soni (dona) | Umumiy shartnomalar sonidagi ulushi (%) | Shartnomalar qiymati (mlrd so‘m) | Umumiy xaridlar qiymatidagi ulushi (%) |
|---|---|---|---|---|
| 2020 | 68 500 | 34,2 | 18 400 | 21,5 |
| 2021 | 79 300 | 36,8 | 24 900 | 24,3 |
| 2022 | 95 700 | 39,6 | 33 800 | 27,9 |
| 2023 | 118 400 | 43,7 | 47 600 | 31,8 |
| 2024 | 142 800 | 47,5 | 62 300 | 35,4 |

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2020–2024-yillarda kichik va o‘rta biznes (KO‘B) subyektlari bilan tuzilgan davlat shartnomalari soni qariyb ikki baravarga oshgan. Bu holat elektron tender tizimining kengayishi hamda KO‘B uchun kvotalarning joriy etilishi bilan izohlanadi. Shartnomalar qiymatining o‘sish sur’ati shartnomalar soniga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, bu KO‘B subyektlarining yirik loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlari kengayganini ko‘rsatadi. KO‘B ulushining umumiy davlat xaridlaridagi darajasi 21,5 foizdan 35,4 foizgacha oshgani ushbu sektorning institutsional integratsiyasi kuchayganidan dalolat beradi.

Davlat xaridlari mexanizmining raqamlashtirilishi, xususan, elektron auksion va tender tizimlarining joriy etilishi KO‘B subyektlari uchun bozorga kirish xarajatlarini kamaytirib, jarayonlarning shaffofligini oshirdi. Elektron savdo maydonchalari orqali tenderlarda ishtirok etish imkoniyati raqobat muhitini kuchaytirib, KO‘B subyektlarining davlat buyurtmalaridagi ulushini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, yuqori raqobat sharoiti KO‘B subyektlaridan elektron savdo mexanizmlarini chuqur o‘zlashtirishni hamda ularning moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlarini mustahkamlashni talab etadi. Demak, davlat xaridlarida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish faqat imtiyozlar bilan cheklanib qolmasdan, korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan uyg‘unlashtirilishi zarur.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat xaridlari tizimi KO‘Bni rivojlantirishning samarali institutsional vositasi hisoblanadi. Biroq uning ta’sirini yanada kuchaytirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- KO‘B subyektlari uchun tender hujjatlarini tayyorlash bo‘yicha maslahat xizmatlarini kengaytirish;
- elektron platformalar funksional imkoniyatlarini soddalashtirish hamda axborot shaffofligini oshirish;
- eksportga yo‘naltirilgan KO‘B subyektlarini subsidiya va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari orqali rag‘batlantirish.

Shunday qilib, davlat buyurtmalari tizimi KO‘B subyektlari uchun barqaror talab manbaini yaratish orqali ularning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotda raqobatbardosh ishlab chiqarish va xizmatlar sektorini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes (KO‘B) raqobatbardoshligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanganini ko‘rsatadi. Quyida eksportni qo‘llab-quvvatlash, ishlab chiqarish infratuzilmasiga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, grant va moliyaviy yordamni kuchaytirish hamda ma’muriy yukni qisqartirish bo‘yicha amaliy mexanizmlar muhokama qilinadi.

O‘zbekistonning jahon bozorlariga integratsiyasi hamda eksport geografiyasining kengayishi KO‘B subyektlari uchun tashqi talabni oshirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Eksport xarajatlarini qisman qoplash (logistika, sertifikatlash, marketing), foiz to‘lovlarini subsidiyalash hamda eksport oldi moliyalashtirish instrumentlari KO‘B subyektlarining tashqi bozorga chiqishidagi to‘siqlarni kamaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Eksportni qo‘llab-quvvatlash agentligi hisobotlari eksportni rag‘batlantirish dasturlari doirasida KO‘B subyektlari ulushi ortib borayotganini ko‘rsatmoqda. Xalqaro amaliyotda ham eksportga yo‘naltirilgan subsidiyalar kichik va o‘rta biznesning innovatsion faolligini oshirish hamda mahsulot diversifikatsiyasini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik va o‘rta biznes (KO‘B) subyektlari uchun subsidiyalar tanlovli va natijaga bog‘langan (performance-based) mexanizmlar asosida taqdim etilganda budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi yanada yuqori bo‘ladi.

KO‘B subyektlari uchun ijara va infratuzilmaviy xarajatlar umumiy xarajatlarning sezilarli qismini tashkil etadi. Davlat mulki obyektlarini shaffof elektron auksionlar orqali imtiyozli ijaraga berish, uzoq muddatli shartnomalarni joriy etish hamda ustuvor sotib olish huquqini taqdim etish kabi mexanizmlar korxonalarning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlashga xizmat qiladi.

8 O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar. URL: https://www.lex.uz

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan davlat aktivlarini ochiq savdoga chiqarish amaliyoti kengayib bormoqda. Bu esa KO‘B subyektlarining ishlab chiqarish maydonlariga kirish imkoniyatlarini osonlashtiradi. Fikrimizcha, hududiy rivojlanish dasturlari bilan uyg‘unlashgan holda tarmoq ixtisoslashuviga mos mulk obyektlari ro‘yxatini shakllantirish ushbu mexanizm samaradorligini yanada oshirgan bo‘lar edi.

Elektr, gaz va kommunal tarmoqlarga ulanish xarajatlari KO‘B subyektlari uchun sezilarli moliyaviy yuk hisoblanadi. Standart shartnomalarni joriy etish, tariflarni optimallashtirish hamda mustaqil ekspertiza institutlarini shakllantirish orqali ushbu xarajatlarni kamaytirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda infratuzilmaga ulanish tartib-taomillari soddalashtirildi va natijada raqamli “bir darcha” xizmatlari infratuzilmaga ulanish muddatlarini qisqartirishga xizmat qildi.

Jahon amaliyotida grant ko‘magi eng ko‘p qo‘llaniladigan mexanizmlardan biri mikromoliyalashtirish va ta’lim dasturlari hisoblanadi. Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalari huzurida tashkil etilayotgan innovatsion kichik kompaniyalar uchun bir yuridik shaxsga 0,5 million rubl miqdorida grant ajratish amaliyoti ham qo‘llanilmoqda.

Innovatsion startaplar, modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirayotgan hamda eksportga yo‘naltirilgan korxonalar uchun grant dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari huzuridagi innovatsion kompaniyalarga boshlang‘ich grantlar ajratish amaliyoti startap ekotizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion rivojlanish agentligi hamda Savdo-sanoat palatasi tomonidan tadbirkorlar uchun qisqa muddatli (100 soatgacha) amaliy kurslar va biznes-ta’lim dasturlari tashkil etilmoqda. Bu esa o‘z navbatida KO‘B subyektlarining ilk uch yilda “yashovchanlik koeffitsiyenti”ni oshirishga xizmat qilmoqda.

Imtiyozli kreditlar, kafolat jamg‘armalari hamda venchur moliyalashtirish mexanizmlari KO‘B subyektlarining investitsiya faolligini rag‘batlantiradi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda tijorat banklari orqali foiz stavkalarini subsidiyalash amaliyoti ham kengayib bormoqda. Kafolat jamg‘armalarini kapitalizatsiya qilish hamda xususiy investitsiya fondlari tarmog‘ini rivojlantirish KO‘B subyektlarining investitsiya faolligini oshiradi va moliyalashtirish manbalariga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tekshiruvlar sonini cheklash, litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish hamda ularni raqamlashtirish tadbirkorlik muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Regulatory Impact Assessment (RIA) mexanizmlarining joriy etilishi ma’muriy to‘siqlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Fikrimizcha, profilaktik tekshiruvlar hamda maslahat berishga asoslangan nazorat tizimi tadbirkorlik faolligini cheklamasdan uni samarali tartibga solish imkonini beradi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, eksportni subsidiyalash, infratuzilmaga kirishni yengillashtirish, grant va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda ma’muriy yukni kamaytirish choralari KO‘B subyektlarining raqobatbardoshligini tizimli ravishda oshirishga xizmat qiladi. Biroq ushbu mexanizmlar o‘zaro muvofiqlashtirilgan va natijaga yo‘naltirilgan monitoring tizimi bilan ta’minlangan taqdirda ularning samaradorligi yanada yuqori bo‘ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes (KO‘B)ga nisbatan davlat siyosati so‘nggi yillarda izchil ravishda takomillashib bormoqda. Shu bilan birga, ayrim holatlarda tartibga solish choralari o‘rtasidagi muvofiqlashtirish yetarli darajada ta’minlanmagan. Ba’zi hollarda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy qarorlar tadbirkorlikni rag‘batlantirish maqsadlariga to‘liq mos kelmasligi yoki ularni amaliyotda qo‘llash jarayonida qo‘shimcha ma’muriy yuk keltirib chiqarishi mumkin.

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda tadbirkorlik jamoatchiligi tomonidan ilgari surilgan muhim tashabbuslarning davlat siyosatida inobatga olinishi ijobiy tendensiya sifatida baholanadi. Xususan, soliq imtiyozlari, tekshiruvlarga moratoriy joriy etilishi, iqtisodiy amnistiya mexanizmlarining qo‘llanilishi, litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish kabi chora-tadbirlar KO‘B subyektlarining iqtisodiy faolligini rag‘batlantirishga xizmat qilmoqda.

Davlat va biznes o‘rtasidagi institutsional muloqot mexanizmlarining rivojlanishi, jumladan jamoatchilik muhokamalari, tadbirkorlar murojaatlari platformalari hamda Savdo-sanoat palatasi orqali hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonida xususiy sektor manfaatlarini hisobga olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, agar KO‘Bni qo‘llab-quvvatlash choralari tizimli va uzoq muddatli strategiya asosida muvofiqlashtirilsa, kichik va o‘rta biznes subyektlari soni hamda ularning iqtisodiy faolligida barqaror o‘sishga erishish mumkin. Davlat siyosatining prognozliligi, me’yoriy barqarorlik hamda raqamli boshqaruv mexanizmlarining kengayishi kelgusi yillarda kichik va o‘rta biznesning milliy iqtisodiyotdagi ulushini yanada oshirishga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. World Bank. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance. URL: https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance
2. World Bank. IFC and Small and Medium Enterprises. Washington, D.C.: World Bank Group. URL: https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099924208162450064
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar. URL: https://www.stat.uz
4. OECD. OECD SME and Entrepreneurship Outlook – 2023. URL: https://www.oecd.org/en/publications/oecd-sme-and-entrepreneurship-outlook-2023_342b8564-en.html
5. Mottaeva A., Gritsuk N. Development of Infrastructure of Support of Small and Medium Business. MATEC Web of Conferences, 2017, Vol. 106, Article 08083. DOI: https://doi.org/10.1051/matecconf/201710608083
6. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Rasmiy ma'lumotlar. URL: https://gov.uz/oz/miit
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Rasmiy ma'lumotlar. URL: https://www.imv.uz
8. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar. URL: https://www.lex.uz
9. O'zbekiston Respublikasi davlat xaridlari elektron platformalari: xarid.uz, dxarid.uzex.uz, shop.uzex.uz, eshop.uzex.uz, exarid.uzex.uz, milliydokon.uzex.uz, emilliydokon.uzex.uz, etender.uzex.uz, xarid.uzex.uz — saytlari ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.
10. World Bank. SME Finance and Competitiveness. URL: https://www.worldbank.org/ext/en/topic/competitiveness/small-and-medium-enterprises-smes-finance
11. Bocharova O. N. Socio-Economic Phenomena and Processes. 2013, Vol. 10, pp. 98–111.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir oʻgʻli

**2026. № 3**



© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar maʼsul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi maʼlumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz